



UDC: 336.225.682(045)(575.2)

# SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

**Ergashev Ikrom Abdurasulovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-3924-5182

e-mail: ikromabdurasulovich@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Hozirga qadar soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning ilmiy asoslari chuqur tadqiq etilmagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalasi yetarlicha huquqiy va iqtisodiy jihatdan o'r ganilmaganligi asoslanadi. Soliq intizomini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning nazariy jihatlarini yoritib berishga harakat qilingan. Shuningdek, bugungi kunda dolzarb bo'lgan javobgarliklar toifalari hisoblangan "soliq intizomini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlik", "soliq intizomini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik" va "soliq intizomini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik" tushunchalarining mazmun-mohiyati tahlil etilgan. Muallifning xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bo'yicha qiyosiy tahlili maqolaning o'ziga xos jihatlarini aks ettirishga xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq intizomi, soliq ma'muriyat chiligi, soliq tizimi, huquqbazarliklar, soliq turlari, soliq majburiyati, soliq to'lovchi, javobgarlik, yuridik javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, huquqbazarliklar obyekti va subyektlari, javobgarlikning obyekti va subyektlari.

## ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАЛОГОВЫЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ И ИХ СОВЕРШЕНИЯ

Эргашев Икром Абдурасулович,  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
доцент, самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной научной статье проводится системный анализ правовых основ юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины. До настоящего времени научная основа юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины изучена недостаточно. В последние годы вопрос юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины в Узбекистане недостаточно изучен с правовой и экономической точки зрения. Автор попытался осветить вопросы и теоретические аспекты юридической ответственности за нарушения налоговой дисциплины. Автор также анализирует содержание актуальных на сегодняшний день понятий «материальная ответственность за нарушение налоговой дисциплины», «административная ответственность за нарушение налоговой дисциплины» и «уголовная ответственность за нарушение налоговой дисциплины». Проведенный автором сравнительный анализ законодательства зарубежных стран позволил отразить их особенности в статье.

**Ключевые слова:** налоговая дисциплина, налоговое администрирование, налоговая система, правонарушения, виды налогов, налоговая ответственность, налогоплательщик, ответственность, юридическая ответственность, материальная ответственность, административная ответственность, уголовная ответственность, объект и субъекты правонарушений, объект и субъекты ответственности.

## THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR TAX VIOLATIONS AND THEIR COMMITMENT

**Ergashev Ikrom Abdurasulovich,**  
Independent Researcher, Tashkent State University of Law,  
Associate Professor, PhD

**Abstract.** This scientific article provides a systematic analysis of the legal basis of legal responsibility for violation of tax discipline. So far, the scientific basis for legal responsibility for tax discipline violations has not been thoroughly studied. In recent years, the issue of legal responsibility for violations of tax discipline in Uzbekistan has not been sufficiently studied from legal and economic points of view. The author tried to illuminate the issue of the theoretical aspects of legal liability for violations of tax discipline. The author also analyzes the content of the concepts of "financial responsibility for tax violation", "administrative responsibility for violation of tax discipline" and "criminal responsibility for violation of tax discipline", which are relevant today. The author's comparative analysis of the legislation of foreign countries served to reflect the special characteristics of the article.

**Keywords:** tax discipline, tax administration, tax system, offenses, types of taxes, tax responsibility, taxpayer, responsibility, legal responsibility, financial responsibility, administrative responsibility, criminal responsibility, object and subjects of offenses, object and subjects of responsibility.



Mamlakatimizda ko'p mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot vujudga kelishi bilan mulkchilikning turli shakllari paydo bo'ldi va bugungi kunda ular iqtisodiyotda erkin faoliyat ko'rsatib, daromad keltirish omillari sifatida tan olinmoqda. Kishilik jamiyati va jahon tajribasi har qanday qonuniy daromad qonunchilik asosida davlatning zaruriy xarajatlarini qoplash uchun soliqqa tortilishi lozimligini taqozo qiladi. Shunday ekan, soliqqa oid majburiyatlar va huquqlar majmuasi soliq to'lovchilar va davlat o'rtaсидаги munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Soliq munosabatlari mamlakatimizda qator qonunlar bilan tartibga solinib, ularga amal qilmaslik esa soliqqa oid huquqbazarlik va uning uchun javobgarlik tushunchasini yuzaga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, unga qarshi kurashish, uning oldini olish va bartaraf etishni qonunchilik instituti orqali amalga oshirish kerakligini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, soliqqa oid huquqbazarliklar davlat budgeti, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xufyona iqtisodiyot ko'rinishida sodir etiladi. Xufyona iqtisodiyot esa qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va iste'molchilar, shuningdek, davlatning iqtisodiy va moliyaviy manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi [1].

Mazkur mavzuni yoritar ekanmiz, shu o'rinda "soliqqa oid qonun buzilishi" va "soliqqa oid huquqbazarlik" tushunchalari mazmuniga asosiy e'tiborni qaratmoqchimiz. Huquq nazariyasiga murojaat qilganimizda, bir guruh huquqshunos olimlar tomonidan mazkur tushunchalarga izoh berib o'tish jarayonida, ularning aksariyati bularning bir ma'noda qo'llanilishi xususida o'z fikrlarini bayon qilganini ko'ramiz. Jumladan, huquqshunos olim E.T. Hojiyevning fikricha, ushbu atamalarning bir ma'noda ishlatilishi ma'lum bir g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Soliq qonunchiligini buzish o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, soliq huquqbazarligiga nisbatan kengroq tushunchadir. Chunki barcha soliq huquqbazarliklari soliq qonunchiligini buzish deb e'tirof etilishi mumkin, lekin soliq qonunchiligi talablarini buzishning barchasi ham soliq huquqbazarligi sifatida namoyon bo'lmaydi [2].

Bizningcha, huquqshunos olim E.T. Hojiyev tomonidan bildirilgan fikrlar o'rini. Chunki soliqqa oid qonun buzilishi jinoiy qilmish, ma'muriy va soliqqa oid huquqbazarlik tarzida sodir etiladi. Shundan kelib chiqib, soliqqa oid huquqbazarliklar uchun yuridik javobgarlik belgilashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan ikkinchi masala soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasi va uning yuridik mazmuni bo'lib, bir qator huquqshunos olimlar bu masalaga o'z qarashlarini bildirgan. Jumladan, huquqshunos olim A.V. Demin ushbu tushunchaga "huquqiy ta'sir chorasi sifatida moliyaviy sanksiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan, soliqqa oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan huquqqa xilof, aybli harakat yoki harakatsizlik" [3], deya izoh beradi. Huquqshunos olim L.V. Xvan esa ushbu tushunchani quyidagicha ta'riflaydi: "Soliq huquqbazarligi huquqqa xilof, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanib, qonunchilik normalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada

bajarmaganlikda ifodalanadi hamda buning uchun turli huquq sohalari qonunchilik aktlari bilan yuridik javobgarlik nazarda tutilgan” [4].

E.T. Hojiyev esa mazkur tushunchani javobgarlik nazarda tutilgan hamda soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadigan va qo’riqlanadigan munosabatlarga tajovuz qiluvchi huquqqa xilof, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish deb hisoblaydi.

Umuman, soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasiga yuqoridagi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik. Jumladan, mazkur tushunchaga ta’rif berishda A.V. Demin, R.T. Berdiyarov va Z.N. Qurbonovlar birmuncha to’g’ri yondashgan. Ammo L.B. Xvanning ta’rifidagi “soliq huquqbazarligi uchun turli huquq sohalari qonunchilik aktlari bilan javobgarlik nazarda tutilgan” degan fikr soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasini boshqa huquq sohalaridagi huquqbazarliklar, shuningdek, soliqqa oid jinoyatlar tushunchasidan farqlashni murakkablashtiradi. E.T. Hojiyev tomonidan berilgan ta’rifda esa mazkur tushunchaning barcha yuridik xususiyatlari ifodalangan. Bu esa soliqqa oid huquqbazarlikning mazmun-mohiyatini to’g’ri talqin qilishda ijobjiy samara beradi, deb hisoblaymiz.

Biz esa yuqoridagilardan kelib chiqib hamda huquqshunos olimlarning fikrlarini tahlil qilish natijasida soliqqa oid huquqbazarlik tushunchasining quyidagi belgilarini keltirib o’tishimiz mumkin:

- soliq qonunchiligi normalari talablari buzilganligi uchun faktik asos;
- qilmishning huquqqa xilofliliqi;
- qilmishning harakat yoki harakatsizlikda ifodalanishi;
- qilmishni sodir etgan shaxsning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi aybining mavjudligi;
- sodir etilgan qilmish uchun davlat va uning vakolatli organlari yoki mansabdor shaxslari tomonidan davlat majburlov choralarining qo’llanilishi va boshqalar.

Shunga muvofiq, mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berishni lozim topdik, ya’ni soliqqa oid huquqbazarlik – bu soliq munosabatlari ishtirokchilarining soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzishi oqibatida moliyaviy sanksiyalar nazarda tutilgan, qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etiluvchi aybli, huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir.

Bir qator MDH davlatlari soliq qonunchiligini tahlil qilganda, ularning amaldagi qonunchiligidagi soliqqa oid huquqbazarliklar tushunchasiga berilgan ta’riflarda soliq agentlarining javobgarligi ham nazarda tutiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida bu tushuncha quyidagicha ifodalangan: Soliq to’lovchilar, soliq agentlari va boshqa shaxslarning mazkur kodeksda javobgarlik belgilangan aybli, huquqqa xilof (soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi qonunchilikni buzish) qilmishi (harakat yoki harakatsizlik) soliqqa oid huquqbazarlikdir [5].

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 210-moddasida soliq to’lovchi, soliq agenti yoki boshqa shaxsning soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g’ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbazarlik deb e’tirof etiladi.



Soliqqa oid huquqbazarliklar haqida so'z ketar ekan, avvalo, bunda uning yuridik xususiyatlariha ham e'tibor qaratishimiz lozim. Yu.A. Kroxina soliqqa oid huquqbazarliklarning quyidagi yuridik xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi [2]:

- huquqqa xiloflik;
- aybning mavjudligi;
- qilmishning jazoga sazovorligi singari.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablarida esa soliqqa oid huquqbazarlikning quyidagi zarur xususiyatlari keltirilgan:

- qilmishning g'ayriqonuniyligi;
- aybning mavjudligi;
- javobgarlikning muqarrarligi.

Ta'kidlash joizki, soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilganligi uchun javobgarlikni belgilashda uning yuridik tarkibini aniqlash muhim masaladir. Huquqbazarlikning yuridik tarkibi tushunchasiga ta'rif berishdan oldin tarkibning o'zi nimani anglatishiga e'tibor qaratishimiz lozim. O'zbek tilining izohli lug'atida u ma'lum bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar [7], deya izohlangan. Huquqshunoslikda mazkur tushunchaga – huquq bilan o'rnatilgan va qilmishni huquqbazarlik sifatida xarakterlovchi xususiyatlar yig'indisidir, deb ta'rif berilgan. Shunday qilib, huquqbazarlikning tarkibi – bu uning nimalardan tashkil topganligini ko'rsatadigan jamlanma tushuncha, uning qismlari yig'indisidir [8]. Bunda huquqbazarlikning yuridik xususiyati va yuridik tarkibi tushunchalarini farqlash lozim. Mazkur tushunchalar ikki xil tushuncha bo'lib, ya'ni tarkib – bu qilmishni huquqbazarlik sifatida e'tirof etsa, yuridik xususiyatlar – huquqbazarlikning mazmunini ochib beradi.

Huquq nazariyasiga muvofiq, har qanday huquqbazarlik o'zining muayyan tarkibiga ega bo'lib, o'ziga huquqbazarlikning obyekti, subyekti, obyektiv hamda subyektiv tomonlarini qamrab olgani holda, soliqqa oid huquqbazarliklarning tarkibi quyidagilardan tarkib topadi:

Huquqbazarlik obyekti – bu har qanday huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Shunga ko'ra, biz soliqqa oid huquqbazarlikning obyekti sifatida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarni e'tirof etamiz.

Huquqbazarlikning obyektiv tomoni – huquqqa xilof qilmishning o'zi bo'lib, uning natijasida kelib chiqqan haqiqiy zararli oqibat va qilmish bilan natija o'rtasidagi sababiy bog'lanishdir [8, 45-b.]. Huquqshunos olim E. Hojiyev esa soliqqa oid huquqbazarlikning obyektiv tomonini ikki xil xususiyat bilan ifodalagan: majburiy va fakultativ. Majburiy xususiyatlarga huquqqa xilof qilmish, huquqqa xilof qilmishdan kelib chiqadigan oqibat hamda huquqqa xilof qilmish bilan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish; fakultativ xususiyatlarga esa bir necha soliq huquqbazarligini sodir etish, takroran soliq huquqbazarligini sodir etish, soliq huquqbazarligini sodir etish vaqtি kiradi [2]. Bizningcha, yuqorida fikrlardan kelib chiqib, soliqqa oid huquqbazarlikning obyektiv tomoni mazmunini shaxsning huquqqa zid harakati yoki harakatsizligi, qilmishning salbiy oqibatlari hamda huquqbazar xulq-atvori bilan yuzaga kelgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, huquqbazarlik sodir

etilgan vaziyat, vaqt, joy kabilardan iborat bo'lgan qilmish tashkil etadi, deya e'tirof etamiz.

Huquqbazarlik subyekti – bu har qanday huquqbazarlikni sodir etgan muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxsdir [8]. Shunga ko'ra, soliqqa oid huquqbazarlikning subyekti – soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etgan va javobgarlikka tortiluvchi, muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi. Bir qator huquqshunos olimlar soliq huquqbazarligining subyekti sifatida jismoniy va yuridik shaxslarni ko'rsatib o'tadi. Mamlakatimiz soliq qonunchiligidagi ham soliqqa oid huquqbazarlik subyektlari sifatida jismoniy va yuridik shaxslar e'tirof etiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 19-moddasiga ko'ra, soliq to'lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlaridir.

Ular huquqbazarlik subyekti sifatida o'ziga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarmagan hamda amaldagi soliq qonunchiligiga zid xatti-harakatlarni sodir etganligida namoyon bo'ladi.

Bayon etilganlarga ko'ra, soliqqa oid huquqbazarlikning subyekti – bu soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etgan va javobgarlikka tortiluvchi muayyan yosha to'lgan, aqli raso shaxs hisoblanadi.

Huquqbazarlikning subyektiv tomoni – har qanday huquqbazarlikda aybning mavjudligi, ya'ni huquqbuzarning o'z qilmishi va uning natijalariga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi munosabatidir [2]. Shunga muvofiq, soliqqa oid huquqbazarlikning subyektiv tomoni ham sodir etilgan soliqqa oid huquqbazarlikda aybning mavjudligi bo'lib, u huquqbuzarning o'z qilmishi va uning natjasiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi munosabatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, soliqqa oid huquqbazarlikni sodir etgan shaxsning aybini aniqlashda qonun hujjatlaridagi barcha holatlar e'tiborga olinishi zarur. Shaxsning soliqqa oid huquqbazarligi uchun javobgarlik masalasi ko'rib chiqilayotganda esa quyidagilarga e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz:

*birinchidan*, soliqqa oid huquqbazarlik tarkibining mavjudligi;

*ikkinchidan*, huquqbazarlik tarkibi mavjud bo'lмаган holda, soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikdan ozod qilish;

*uchinchidan*, soliqqa oid huquqbazarlik sodir etganlikdagi aybi va uni javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlarning mavjudligi;

*to'rtinchidan*, soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar va hokazo.

Amaldagi Soliq kodeksida mazkur holatlar o'z aksini topgan.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, soliq huquqbazarligini sodir etgan shaxsning aybini aniqlashda qonun hujjatlarida belgilangan barcha holatlarning e'tiborga olinishi javobgarlikning yanada adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Ammo amaldagi soliq qonunchiligidagi aybni aniqlash xususiyatlari, jumladan, uning shakllari xususida norma mavjud emas. Ya'ni qilmish huquqbazarlik deb e'tirof etilishi uchun aybli bo'lishi lozim. Ayb esa, o'z navbatida, qasd va ehtiyotsizlik kabi shakllardan iborat bo'ladi. Huquqbazarlik subyekti qilmishining ayblilik masalasini baholashda bu asosiy



vositadir. Shundan kelib chiqib, mazkur kodeksda qilmishning qasd yoki ehtiyoitsizlik natijasida sodir etilishini belgilovchi normani nazarda tutish lozim deb hisoblaymiz. Shundagina soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi yanada adolatli tarzda qo'llanilgan bo'lar edi. Zero, adolatlilik tamoyili qonunchiligidizning bosh mezonidir.

## REFERENCES

1. Jo'rayev A.S., Ortiqov N.A. Soliq huquqi asoslari [Fundamentals of tax law]. Tashkent, Ilm ziyo, 2012, p. 121.
2. Hojiyev E.T. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik [Legal liability for violation of tax legislation]. Tashkent, 2006, pp. 53, 64.
3. Demin A.V. Nalogovoye pravo Rossii [Russian tax law]. Krasnoyarsk, 2006, p. 267.
4. Xvan L.B. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, Konsauditinform, 2001, p. 118.
5. Nalogovyy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Tax Code of the Russian Federation]. Art. 106.
6. Krokhina Yu.A. Nalogovoye pravo [Tax law]. 6<sup>th</sup> ed., revised. Moscow, Yurayt Publishing House, 2013, 495 p.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Ed. A. Madvaliyev. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, 2007, vol. 3, p. 683.
8. Amirov Z. Huquqbuzarlik tarkibi obyekti va obyektiv tomoni masalalari [Matters of the object and the objective side of the composition of the offense]. *Bulletin of the Supreme Economic Court*, 2009, no. 7, pp. 44–45.

# KRIMINOLOGIYA VA JINDOY ODIL SUDLOV

## ILMIY-AMALIY JURNAL

2-3 / 2022

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOSH MUHARRIR:**

Q. Abdurasulova

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR:**

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

N. Salayev

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori.

**Mas'ul muharrir:** K. Hakimov

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, Sh. Yusupova, F. Muhammadiyeva

**Musahih:** M. Patillaryeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1386.

Jurnal 2022-yil 27-sentabrda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli b.t. 11,39. Adadi: 100. Buyurtma: № .

TDYU tipografiyasida chop etildi.